Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti doktoranti

To‘rayeva Maftuna Abdiraim qizi

maftunaturayeva.uz@gmail.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MUROJAATNING KOMMUNIKATIV PRAGMATIK SHAKLLARI

Abstract. This article analyzes the communicative-pragmatic forms of address in the Uzbek and English languages. Formal, informal, emotional and etiquette forms of address are shown on the basis of examples, and their socio-cultural and speech functions are indicated.

Keywords: pragmatics, etiquette, speech situation, address, communication.

Аннотация. В данной статье анализируются коммуникативно-прагматические формы обращения в узбекском и английском языках. На примерах показаны формальные, неформальные, эмоциональные и этикетные формы обращения, а также указаны их социокультурные и речевые функции.

Ключевые слова: прагматика, этикет, речевая ситуация, обращение, коммуникация.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida murojaatning kommunikativ-pragmatik shakllari tahlil qilinadi. Murojaatning rasmiy, norasmiy, emotsional va etiket shaklllari misollar asosida ko’rsatilib, ularning ijtimoiy-madaniy va nutqiy vazifalari ko’rsatilib beriladi.

Kalit so’zlar: pragmatika, etiketa, nutqiy vaziyat, murojaat, kommunikatsiya.

Kirish. Til – insonlarning bir-biri bilan muloqotini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy vositadir. Har qanday til tizimida murojaat hodisasi muloqotning muhim komponenti sifatida ajralib turadi. O‘zbek tilshunosligida murojaat masalasi ko‘proq nutq madaniyati, etiketa va sotsiopragmatika bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan murojaat suhbatdoshga e’tibor qaratish, u bilan aloqa o‘rnatish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Asosiy qism. 1. Murojaatning kommunikativ mohiyati

Pragmatika fanida murojaat – kommunikatsiya jarayonida tinglovchini aniqlash, suhbatni boshlash yoki davom ettirish, shuningdek, suhbatdoshga bo‘lgan munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilida murojaatlar orqali:

suhbatdoshning ijtimoiy maqomi, yoshi, jinsiy xususiyatlari;

so‘zlovchining hurmati yoki yaqinligi;

nutq vaziyatining rasmiy yoki norasmiyligi;

emotsional holat kabi jihatlar namoyon bo‘ladi.

2. O’zbek tilida murojaatning shakllari

O’zbek tilida murojaatlar turlicha tasnif qilinadi. Eng asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi.

- Rasmiy murojaat vositalari

O‘zbek tilida rasmiy murojaatlar ko‘pincha unvon, lavozim, familiya yoki ism bilan qo‘llanadi.

1. Hurmat bildiruvchi birliklar: hurmatli, aziz, janob, xonim.

Misol: Hurmatli hamkasblar, Aziz talabalar, Janob hokim!

2. Unvon va lavozim asosidagi murojaatlar: professor, doktor, ustoz, domla, direktor, hokim, rektor.

Misol: Professor Karimov, Domla Alimov, Hurmatli rektor!

3. Kollektiv murojaatlar: hurmatli tinglovchilar, aziz mehmonlar, muhtaram hamyurtlar. Bu turdagi murojaatlar jamoaviy nutqda keng qo‘llanadi.

Kommunikativ-pragmatik xususiyatlar

Masofani saqlash. Rasmiy murojaatlar suhbatdoshlar o‘rtasidagi ierarxik farqni belgilaydi.

Hurmat kategoriyasi. “Siz” zamiri bilan uyg‘un qo‘llanib, suhbatdoshga e’tibor kuchaytiriladi: Sizning nutqingiz uchun tashakkur bildiramiz.

Nutq etiketi. Rasmiy muloqotda salomlashuv va murojaatlar alohida ahamiyatga ega: Assalomu alaykum, Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Aniqlik va ravonlik. Rasmiy murojaatlar sodda, tushunarli va me’yoriy shaklda bo‘lishi talab qilinadi.

- O‘zbek tilida norasmiy murojaat vositalari

1. Qarindoshlik asosidagi murojaatlar -aka, opa, uka, jiyan, tog‘a, buvi, dada, ona.

Misol: Aka, bu ishni birga qilaylik, Opa, sizga gapim bor edi.

2. Do‘stona murojaatlar - do‘stim, jo‘ra, oshna, ukam, og‘ayni.

Misol: Jo‘ra, kechqurun uchrashamizmi?

3. Sevgi va mehr ifodalovchi murojaatlar - jonim, sevgilim, yuragim, bolajonim.

Misol: Jonim, bugun qanday o‘tdi kuning?

4. Mahalliy va lahjaviy murojaatlar - tog‘amjon, uka, qizalog‘im, bolam, beka.

Mahalla yoki oilaviy muhitda tez-tez uchraydi.

5. Hazil yoki samimiyat kuchaytiruvchi murojaatlar- qorovul, qahramon, qoplon, sherlarcha ukam (o‘yin yoki hazil sifatida).

Norasmiy murojaatning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari.

Samimiylikni ta’minlaydi – yaqin do‘stlar, oila a’zolari o‘rtasida rasmiylikni yumshatadi;

Hissiy rang beradi – sevgi, mehr, dard yoki quvonchni kuchli ifodalaydi;

yaqinlikni bildiradi – qarindoshlik va do‘stlik rishtalarini mustahkamlaydi;

Nutq madaniyatida yumshoqlik yaratadi – suhbatni ko‘proq shaxsiy tusga keltiradi.

Emotsional murojaatlar.

So‘zlovchining hissiy holatini bildiradi: voy, bolam!, jonim, sevgilim.

Etiket murojaatlari.

Milliy qadriyatlar bilan bog‘liq: assalomu alaykum, marhamat, xush kelibsiz.

3. Kommunikativ-pragmatik xususiyatlari

O‘zbek tilidagi murojaatlar:

ierarxik xarakterga ega – katta-kichikka nisbatan farqli qo‘llanadi;

hurmat kategoriyasini bildiradi – siz va sen olmoshlarining qo‘llanilishi suhbatdoshning maqomiga bog‘liq;

madaniy milliylikni aks ettiradi – aka-uka tizimi kabi qadriyatlarda ifodalanadi;

emotsionallikni kuchaytiradi – his-tuyg‘ularni tinglovchiga yetkazishda ta’sirchanlik beradi.

. Ingliz tilida murojaat vositalari ko’pincha ijtimoiy maqom, vaziyat va suhbatdoshlarning munosabatiga qarab qo’llaniladi. Ularga quyidagilar misol bo’la oladi.

1.Rasmiy murojaatlar

- Unvon va familiya bilan

Mr. Smith – janob Smit (erkaklarga, familiya bilan)

Mrs. Johnson – xonim Jonson (turmush qurgan ayollarga)

Miss Brown – xonim Braun (turmush qurmagan ayollarga)

Ms. Taylor – xonim Teylor (turmush holatini ko‘rsatmasdan)

- Akademik va ilmiy unvonlar bilan

Doctor (Dr.) Adams – doktor Adams

Professor Green – professor Grin

- Harbiy va davlat unvonlari bilan

Captain Miller – kapitan Miller

General Wilson – general Uilson

Your Excellency – hazratlari, oliyhazarat (elchilar, yuqori davlat amaldorlari uchun)

Your Honour – oliyhazarat (sudyaga murojaatda)

- Umumiy murojaatlar .Sir – janob (erkaklarga nisbatan), Madam – xonim (ayollarga nisbatan), Ladies and Gentlemen – hurmatli ayollar va janoblar (nutq yoki majlislarda)

Ingliz tilida norasmiy murojaatlar (informal address forms) kundalik muloqotda, do‘stlar, qarindoshlar, yaqin tanishlar va tengdoshlar o‘rtasida qo‘llaniladi. Ular samimiyat, yaqinlik va oddiy muloqot kayfiyatini ifodalaydi.

2. Asosiy norasmiy murojaatlar:

- Ismlar

John!, Kate!, Tom! – oddiy ism bilan murojaat qilish.

Qisqartirilgan shakllar: Mike (Michael), Liz (Elizabeth), Sam (Samuel).

- Samimiy murojaatlar

buddy, mate – do‘st, o‘rtoq.

pal, dude, bro – do‘stona, erkaklar o‘rtasida ko‘p ishlatiladi.

sis, girl, chick – yaqin ayol do‘stlarga.

- Oilaviy va mehrli murojaatlar

mom, dad – ona, ota.

grandma, grandpa – buvi, bobo.

honey, dear, darling, babe, sweetheart – yaqin insonlarga, sevgililarga.

- Oddiy va neytral murojaatlar

hey, hi there – norasmiy salomlashish.

guys – do‘stlar yoki guruhga murojaat (Hey guys!).

man – erkakka norasmiy murojaat (What’s up, man?).

girl – ayol do‘stga murojaat (Hey girl!).

3.Ingliz tilida emotsional murojaatlar (emotional address forms) suhbatdoshga bo‘lgan mehr, samimiyat, g‘amxo‘rlik yoki hissiy munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular odatda oila a’zolari, sevgan insonlar, yaqin do‘stlar va bolalarga nisbatan qo‘llanadi.

- Sevgi va samimiyat ifodalovchi murojaatlar

darling – azizim

dear – qadrdonim

sweetheart – shirinim

honey – jonim, asalim

love – sevgilim (Britaniyada keng qo‘llanadi)

baby / babe – jonim, sevgilim

my angel – farishtam

my sunshine – quyoshim

- Bolalarga va oilada qo‘llanadigan emotsional murojaatlar

sweetie – shirinjon

cutie – yoqimtoy

pumpkin – qovoqjon (mehr bilan aytiladigan laqab)

kitty / bunny – mushugim / quyoncham

little one – kichkinam

my boy / my girl – o‘g‘lim / qizim

- Do‘stona va mehrli murojaatlar

buddy – do‘stcham

pal – jo‘ram

mate – o‘rtoq (ko‘proq Britaniya ingliz tilida)

dearest friend – eng qadrli do‘stim

4. Neytral murojaatlar – excuse me, hey, you, there- notanish shaxslar yoki neytral muloqot vaziyatida qo’llaniladi.

Xulosa. Ingliz tilida murojaatning kommunikativ-pragmatik shakllari suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat, emotsional kayfiyat va nutqiy vaziyatni belgilashda muhim o‘rin tutadi. Ularning to‘g‘ri qo‘llanishi samarali muloqotni ta’minlash bilan birga, madaniyatlararo muloqotda ham o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu bois, murojaat vositalarining lingvopragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish ingliz tilini o‘qitish, tarjima amaliyoti va qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlari uchun katta ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. O‘zbek tilida murojaat vositalarining lingvopragmatik tahlili. – Toshkent: Fan, 2015.

2. Rajabov A. O‘zbek nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

3. Safarov Sh. Pragmatika va nutqiy faoliyat. – Toshkent: Fan, 2008.

4. Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: CUP, 1987.

5. Jumayeva, M. (2022). Characteristics of Verbs in English and Uzbek Languages. Science and innovation, 1(B7), 711.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2006.

7. Jumayeva, M., & Jumatova, B. (2023). Linguopragmatic features of expressions expressing feelings in Uzbek and English literary texts. Science and innovation, 2(C12), 166-169.

8. Kamiljanovna, Z. D., O'G'Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis Of Higher Order Thinking Skills. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 672-676.